PUDRAT SHARTNOMASI

№ ____

Toshkent sh. "__" _____ 20__ y.

"_____" MChJ (STIR _____), keyingi o‘rinlarda "Buyurtmachi", nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor _____, bir tomondan, va _____ (STIR _____), keyingi o‘rinlarda "Pudratchi", nomidan _____ asosida ish yurituvchi _____, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o‘z kuchi va materiallari bilan _____ obyektida _____ ishlarini bajarish, Buyurtmachi esa natijani qabul qilib, haqini to‘lash majburiyatini oladi.

2.1. Ishlar qiymati smetaga muvofiq _____ so‘m. Bo‘nak: ____%. Hisob-kitob bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida. 2.2. Ishlarni boshlash: "__" _____, tugatish: "__" _____ 20__ y. Kafolat muddati: ____ oy.

TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

Majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda tomonlar "Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnoma-huquqiy bazasi to‘g‘risida"gi Qonun va Fuqarolik kodeksiga muvofiq javobgar bo‘ladi. To‘lov kechiktirilganda kechiktirilgan har bir kun uchun to‘lanmagan summaning 0,4% miqdorida, lekin muddati o‘tgan to‘lov summasining 50% idan ko‘p bo‘lmagan penya to‘lanadi. Majburiyat bajarilmaganda — bajarilmagan qism qiymatining 0,5% miqdorida, lekin 50% dan ko‘p bo‘lmagan penya.

FORS-MAJOR

Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari (tabiiy ofat, urush, davlat organlarining qarorlari) majburiyatlarni bajarishga to‘sqinlik qilsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi; bu haqda 5 kun ichida yozma xabar beriladi.

NIZOLARNI HAL ETISH

Nizolar muzokaralar yo‘li bilan, pretenziya tartibida (javob muddati — 15 kun), kelishuvga erishilmasa — iqtisodiy sudda hal etiladi.

YAKUNIY QOIDALAR

Shartnoma imzolangan kundan kuchga kiradi va "__" _____ 20__ yilgacha (majburiyatlar to‘liq bajarilguncha) amal qiladi. Shartnoma Didox orqali elektron raqamli imzo bilan imzolangan bo‘lsa, qog‘oz nusxa bilan teng kuchga ega. O‘zgartirishlar qo‘shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

TOMONLARNING REKVIZITLARI

Buyurtmachi	**Pudratchi**

Nomi, manzili, STIR, h/r, bank, MFO, QQS to‘lovchi kodi, telefon — har bir tomon bo‘yicha.

Buyurtmachi: _____ M.O. Pudratchi: _____ M.O.